

RASHIDUN XALIFALIGI DAVRIDA ARAB XALIFALIGI

Homidova Mubina Nabijon qizi

Chet tillari yo'nalishi, 3-kurs talabasi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

+99888 374 51 26

Annotation

This article examines the political thought of the era of Khulaf al-Rashidin. The purpose is explaining the differences in the political practices of each caliph after the death of the Prophet. Political practice has been carried out since the time of the Prophet Muhammad, that is, the period of Medina, when the Prophet served as a religious leader, but also head of state. During this time, the Prophet acquired many companions who were strong and intelligent in political affairs. After the death of the Prophet Muhammad, rule passes to the Sahabah or Companions. Historically, Muslims have four companions who are the successors of the Prophet, known as Khulafa al-Rasiyadin. The political practice adopted by Khulafa al-Rashidin has a standardized system, with each ruling caliph applying a different political system according to the living conditions of the people that existed in that era. The four caliphs are appointed leaders in different ways.

Key words and phrases: Caliphate, quraysh, prophet, rasul, hijrat, xiro, Rasululloh, Abu Bakr Siddiq (r.a.), Umar (r.a.), Usmon (r.a.), Ali (r.a.).

Аннотация

В данной статье рассматривается политическая мысль эпохи Хулафа ар-Рашидина. Целью является объяснение различий в политической практике каждого халифа после смерти Пророка. Политическая практика осуществлялась со времен Пророка Мухаммеда, то есть периода Медины, когда Пророк служил не только религиозным лидером, но и главой государства. За это время Пророк приобрел множество сподвижников, сильных и умных в политических делах. После смерти Пророка Мухаммеда власть переходит к Сахабам или

Сподвижникам. Исторически у мусульман есть четыре сподвижника, которые являются преемниками Пророка, известного как Хулафа ар-Расиядин. Политическая практика, принятая Хулафой ар-Рашидином, имеет стандартизированную систему, при этом каждый правящий халиф применяет различную политическую систему в соответствии с условиями жизни людей, существовавшими в ту эпоху. Четыре халифа назначаются лидерами по-разному.

Arab Xalifaligi VII asrda tashkil topgan davlat bo'lib, asoschisi Muhammad sollallohu alayhi vasallamning eng yaqin safdoshi xalifa Abu Bakr Siddiqdir hisoblanadi. 630-715 yillar orasida Arablar dunyoning juda ko'plab mamlakatlarni bosib olgan. Bu mamlakatlarni zabit etilishiga „Xulafoi Roshidin“ („To‘g‘ri yo‘ldan boruvchi xalifalar“) boshchilik qildi. Muhammad sollallohu alayhi vasallam hayotining oxiriga kelib 630-yilda ko‘p sonli arab qabilalarining islom bayrog‘i ostida birlashuvi negizida yagona davlatga asos soldi. Muhammad (s.a.v.) 632- yilda vafot etgach, uning eng yaqin safdoshi Abu Bakr Siddiq xalifa deb e'lon qilindi¹.

Payg‘ambar noiblari- to‘rt choriyorlar

- Hazrat Abu Bakr Siddiq (632-634);
- Hazrati Umar (634-646);
- Hazrati Usmon (646-656);
- Hazrat Ali (656-661).

Shuningdek, ular Nabiy sollallohu alayhi vasallamning eng yakin saxobalaridir. Bu turt buyuk saxobalar ismlari zikr qilingan tartibda musulmon ummatiga rahbarlik qilganlar. Ularning fazlini Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallamning o‘zlari aytib ham qo‘ygan edilar. Irboz ibn Soriya roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Sizlarga mening sunnatimni va xidoyatga solingan roshid xalifalar sunnatini tutish lozimdir, unga tish-tirnoqlar bilan yopishinglar», dedilar»².

¹ Ahmedov. B. O‘zbekiston tarixi xalqlari manbalari. Toshkent, 1991, 105b

² Muxammad Yusuf.Sh.M.S. Islom tarixi, Toshkent, 2018, 376b.

Ushbu xalifalar musulmon ummatiga rahbarlik qilgan muddat o'ttiz yilni o'z ichiga oladi. Bu davr xalifalarning Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning yo'llaridan adashmasdan, hech qayerga og'ishmasdan borishlari bilan ajralib turadi. Bu davrga kelganda musulmon olamida Alloh taolo ko'rsatgan va rozi bo'lgan to'g'ri yo'lidan yurildi. Ushbu vaqtda Islom hukmining eng to'g'ri surati gav-dalandi va u har bir hokimning ikki dunyo saodatini istagan kishilarga o'rnak bo'lishi uchun namoyon bo'ldi.

Ana o'sha davrda musulmonlarga mukammal va bax-tiyor xayot ta'minlanishi va'da qilindi. Ushbu muddatda Islom tamadduni o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Ayni shu muddatda kishilar tugal saodatga erishdilar. Tenglikka, adolatga, omonlikka, xotirjamlik ta'minlanishiga erishdilar. Shu muddatning oxirlariga kelganda musulmonlarni havf ostida qoldirgan fitnalar yuz berdi. O'sha fitnalar musulmonlarni turli oqim va firqalarga bo'lib tashladi.

Abu Bakr Siddiq roziyallohu anxu kunyasi ismidan mashhur bo'lgan shaxsdir. Abu Bakr - kunyalari bulib, ismlari Abdulloh bo'lgan. Rivoyatlarda keltirilishicha, ularning oldingi ismlari Abdulka'ba bo'lgan ekan. Payg'ambarimiz sollallohu alayxi vasallam bu ismni Abdulloh ismiga almashtirganlar. Ushbu laqabni olishlariga Rasululloh sollallohu alayxi vasallamning har bir amallarini tasdiqlashga har doim shoshib turganlari sabab bo'lgan³. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anxu doimo o'zlariga sodiqlikni muxim hislat deb bilganlar. Iymon masalasida u kishida biror marta ham ikkilanish bo'lman. Shuning uchun ham u kishini «Siddiq» degan nom bilan atalgan. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anxu davrlarida Arabiston yarim oroli to'liq islom dinini qabul qildi va Qur'oni karim kitobining oyatlarini to'plash ishlari boshlandi⁴.

Xalifa Umar ibn Xattob davrlarida (634-646-yillar) kuchli markazlashgan davlat tashkil topadi. U Makka shahrida to'liq ismi Umar ibn Xattob bin Nafiil bin Abduluzzo bo'lgan Quraysh qabilasida tug'ilgan. Umarning oilasi o'rta sinf

³ Muxammad Yusuf.Sh.M.S. Islom tarixi, Toshkent, 2018, 378b.

⁴ Salimov. T, Sultonov F. Jahon tarixi. Toshkent, 2017, 51b.

vakillaridan edi. Umar shuningdek, Makkada kurash bo'yicha champion bo'lgan⁵. U arab qo'shinlarining hujumlari natijasida Vizantiya va Eronga qarashli bo'lган ko'plab o'lkalar bosib olindi. Xususan, Eron, Iroq, Suriya, Misr va butun Shimoliy Afrikani istilo qilindi. Jangari arablarning davlat chegarasi g'arbga va sharqqa tomon tobora kengayib bordi. Arab qo'shinlarining asosiy qismini oqliq qo'shinlar tashkil qildi. Damashq shahri mazkur davlatning poytaxtiga aylanadi.

Inson ilm-ma'rifatga ega bo'lmasdan turib, dunyo xalqlari ichida peshqadam bo'lishni xayoliga keltirmasa xam bo'ladi. Shuning uchun Alloh o'zining oxirgi qiyomatgacha ikki dunyo saodatiga erishish yo'llarini ko'rsatib boradigan dinini, ya'ni Islomni ilm dini qilgan. Umar ibn Xattob roziyalloxu anxu rahbar sifatida bu ma'noni xatto eng nozik joylarigacha his qilar edilar.

Umar ibn Xattob xalifaning o'rribbosarini tayinlash masalasini hal qila olmaydi. Uning pichoqlashi voqealarni yanada murakkablashtirgan. Shunga qaramay, Umar ham Abu Bakr kabi vasiyat qoldirishni o'ylaydi. Bundan chiqish yo'li sifatida Umar yangi xalifani tanlash vazifasini oltita hamrohiga topshiradi. Nasab ilmi ulamolari xazrati Usmon ibn Affonning nasablari hakida quyidagi silsilani keltiradilar:

-U kishi - Usmon ibn Affon ibn Abul Os ibn Umayya ibn Abdushshams ibn Abdumanof ibn Xusay.

-U kishining onalari - Arvo bint Kariyz ibn Rabiy'a ibn Xabib ibn Abdushshams ibn Abdumanof ibn Xusay.

-U kishining onalarining onasi Paygambar sollallohu alayxi vasallamning ammalari Bayzo bint Abdulmuttalibdir.

-Usmon ibn Affon roziyallohu anxuning nasablari Paygambar sollalloxo alayxi vasallamning nasablari bilan ham ota tarafdan, ham ona tarafdan birlashadi.

-Usmon ibn Affon roziyalloxu anxu mashxur «Fil hodisasi»dan olti yil keyin, sahih qavlga ko'ra, Makkada tavallud topganlar.

⁵Wahyuniar W, Nur Afifa. THE POLITICAL THOUGHT OF RASHIDUN CALIPHATE, Tahun, 2020. 177p.

-U kishining otalari Makkaning eng boy tijoratchilaridan edi. Katta tijoratchining o'g'li Usmon xam katta tijoratchi buldilar⁶.

U kishi yoshliklaridan go'zal axloq, oliy insoniy fazilatlarga odatlanib bordilar. Xazrati Usmon roziyalloxu anxu nikoyatda xdyoli va iffatli zot edilar. Mazkur sifatlar bilan bir qatorda, u kishi juda ham saxiy bo'lib, o'z qavmlariga xayr-ehsonni ko'p kilar edilar. Shunday qilib, Usmon ibn Affon roziyallohu anxu yoshlik davrlaridayoq o'z qavmlari bo'l mish Banu Umayya ichida katta obro'ga ega bo'lgan edilar. Uning davrida Qur'oni karim yagona kitob holatiga keltirildi⁷. Xazrati Usmon roziyalloxu anxuning davrlari fatxlarga to'la bo'ldi. U kishi Umar roziyalloxu anxu davrlaridagi fatxlarni tugatish bo'yicha muxim ishlarni olib bordilar. Xazrati Usmon roziyalloxu anxuning fatxlari ham quruklikda, ham dengizda davom etib turdi. U kishi bu borada xazrati Umar roziyalloxu anxuning siyosatini oxiriga yetkazdilar.

Ali ibn Abu Tolib ibn Abdulmuttalib ibn Xoshim ibn Abdumanof ibn Kusay. U kishining onalari: Fotima bint Asad ibn Xoshim ibn Abdumanof ibn Kusay roziyalloxu anxo. Ali ibn Abu Tolib roziyalloxu anxu tavallud topgan yillari Nabiy sollalloxo alayxi vasallam o'ttiz yoshga kirgan edilar. U kishi Rasulullox sollalloxo alayxi vasallamning amakilarining o'g'llari, kizlari Fotimaning umr yoldoshlari va jannat bashorati berilgan o'n kishining biri edilar. Ali ibn Abu Tolib roziyalloxu anxu yoshliklarida Rasulullox sollalloxo alayxi vasallamning uylarida tarbiya topdilar. O'n yoshlarida musulmon bo'ldilar. U kishi yosh bolalardan birinchi Islomga kirgan zotdirlar. Ali ibn Abu Tolib roziyalloxu anxu Islom ta'limotlari asosida o'sib-ulg'aydilar. Rasulullox sollalloxo alayxi vasallamning xijratlari davrida o'limdan qo'rmasdan, u zot sollalloxo alayxi vasallamning o'rinaliga kirib, tushaklarida yotdilar. Shu bilan birga, u kishi Islomda birinchi fidoyi inson sifatida, Allox yo'lida o'zini fido qilishga tayyor shaxs sifatida tanildilar.

Vaqt yetib Rasulullox sollalloxo alayxi vasallamning huzurlarida bo'lgan omonatlarni olib, xammasini egalari- ga topshirib, keyin Madinai munavvaraga xijrat

⁶ Muxammad Yusuf.Sh.M.S. Islom tarixi, Toshkent, 2018, 463b.

⁷ Salimov. T, Sultonov F. Jahon tarixi. Toshkent, 2017, 51b.

kildilar. Ali ibn Abu Tolib roziyalloxu anxu barcha janglarda Rasulullox sollalloxu alayxi vasallam bilan birga katnashgan eng katta qahramonlardan biri edilar. U kishining shijoatlari zarbulmasal bo'lib ketgan. Ali ibn Abu Tolib roziyalloxu anxu fasohatda nihoyatda yukori nuktada, ilmda yetuk olim edilar. Xazrati Ali roziyalloxu anxuning fazilatlari haqida juda kup xadislar kelgan. Xazrati Abu Bakr roziyalloxu anxuning davrlarida u kishi bilan birga bo'ldilar. Xazrati Abu Bakr roziyalloxu anxu u kishidan rozi xolda vafot etdilar⁸.

Hech shubHa yo'qki, xalifa Usmon ibn Affonning o'limlariga sabab bo'lган hodisalardan tortib xazrati Ali ibn Abu Tolib roziyalloxu anxuning o'limlarigacha bo'lган davrda bo'lib o'tgan hodisalar Islom uchun, musulmon ummati uchun misli ko'rilmagan musibat bo'ldi. Bu xodisalar tufayli musulmon ummati o'rtasida bo'linish yuz berdi. Usha paytgacha bir tanu bir jon bo'lib, butun dunyoga Islom nurini taratib kelayotgan, butun insoniyatga xayr-u barakani ularshib kelgan dunyo tarixidagi eng yaxshi ummat ichida darz paydo bo'ldi. Avvallari bu ummat vakillari ixtilof nimaligini bilmas edilar. Vaqt kelib ular avval ikkiga, keyinroq uchga bo'linib ixtilof qildilar. Xuddi o'sha mash'um hodisalar tufayli boshlangan bu bo'linishlar sekin-asta davom etib, musulmon ummatining sog'lom tanasi ichidan turli-tuman toifalar chiqdi. Shiy'a, rofiza, xavorij va shunga o'xshash boshqa har xil toifalarning kelib chiqishi aynan ana shu xodisalardan boshlangan edi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Ahmedov. B. O'zbekiston tarixi xalqlari manbalari. Toshkent, 1991, 105b
2. Muxammad Yusuf.Sh.M.S. Islom tarixi, Toshkent, 2018, 376b.
3. Salimov. T, Sultonov F. Jahon tarixi. Toshkent, 2017, 51b.
4. Wahyuniar W, Nur Afifa. THE POLITICAL THOUGHT OF RASHIDUN CALIPHATE, Tahun, 2020. 177p.

⁸ Muxammad Yusuf.Sh.M.S. Islom tarixi, Toshkent, 2018, 493b.